

## ABDULLA AVLONIY

*Rahimjonova Xumora Ziyovuddin qizi**Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti**Xorijiy tillar fakulteti talabasi**[raximjonovaxumora@gmail.com](mailto:raximjonovaxumora@gmail.com)*

**Abstract:** In brief about Avloni, he has been creating for more than 30 years. He registered labor occasions of 1916 followed by revolutionary upheavals and national liberational problems. In the past, he said he had “left dozens of poems and school books, four theatre books”. When talking about his role in our history of our culture, we should emphasize two aspects: pedagogical activity and literary art. His pedagogical activity and ideas about education are really crucial source of defining the features of awareness which rose a new level in twentieth century. In the article we will observe such facilities as his pedagogical activity, his educative behaviour, his call to science, his engagement the goodness and intelligence.

**Key words:** Education, pedagogue, science, researches, the Avloni school, knowledge, culture, society, intelligence, intellect, mind, nation, description, idea.

Har bir millatning o'z zabardast vakili bo'lgani singari o'zbek adabiyotida o'chmas iz qoldirgan buyuk yozuvchi Abdulla Avloniy hayotiga alohida e'tibor qaratmoq lik biz yoshlarning burchimizdir. Ta'lim sohasida yangiliklarni ko'rib turar ekanmiz avvalboshidanoq ushbu o'zgarishlarning hozirgi kunda avj olishiga asosiy sababchi bo'lgan o'zbek millatining jonkuyar pedagoglaridan biri Avloniy hayotiga alohida to'xtalib o'tishimiz darkor.

Abdulla Avloniy – buyuk shoir, yozuvchi, dramaturg, pedagog, jurnalist va xalq arbobi, o'zbek madaniyati va adabiyotining asoschilaridan biri. U o'zbek pedagogikasi, dramaturgiyasi, milliy teatri, jurnalistikasi, bolalar adabiyotini yangi darajaga olib chiqqan.

U 1878 yilning 12 iyulida Toshkentning Mergancha mahallasida to'quvchi Miravlon aka oilasida dunyoga keldi. Otasi Miravlon kambag'al kishi bo'lgan, shu sababli Avloniy yoshligidan ishlab, pul topishni boshlagan. Uni “Imaratgi usta” deb nomlashgan. Bu haqda u o'z tarjimai holida shunday yozadi: «12 yoshimda O'qchi mahallasidagi madrasada tahsil olganman, 13 yoshimda pul topib, oilamga yordam berganman, qishda esa o'qiganman.»

15 yoshidan Abdulla Avloniyning she'rlari yozma manbalarda chopila boshlagan. 1904 yil Avloniy jadidlar boshqaruvchilaridan biri bo'lgan va jadidchilik maktabini ochgan, 1909 yil “Jamiyati hayriya” tashkilotini yaratadi. 1905-1917 yillar o'z

nashrlari bilan bosma manbalarda faol qatnashadi, “o‘zgarish urug‘lari”ni eka boshlaydi.

1907 yil Avloniy “Shuhrat” gazetasini ochadi. O‘qishdan so‘ng pedagogika bilan shug‘ullanadi, yangi o‘quv tizimiga asos soladi va Sharq hamda G‘arb tillarini o‘qitish taklifini beradi.

Avloniy birinchi bo‘lib jo‘g‘rofiya, kimyo, astronomiya va fizika fanlarini Turkiston maktabida o‘qitish taklifini beradi, u darslar orasida tanaffuslarni, o‘quvchilar bir sinfdan ikkinchisiga o‘tishi orasida imtihon topshirish tizimini yo‘lga qo‘yadi. Shunday qilib, Turkistondagi ta‘lim tizimini yangi bosqichga ko‘taradi.

Uning tashabbusi ila o‘sha davrlarda yurtimizda juda ko‘plab o‘zgarishlar ro‘y berdi. Ko‘plab yoshlar ilmi bo‘lib, boshqa insonlarning savod chiqarishiga yordam berishdi.

Bundan tashqari Avloniy asarlariga alohida urg‘u beradigan bo‘lsak, uning ma‘naviyatni yorqinlashtirishga yo‘g‘rilgan asarlarini o‘qigan insonlardagi vatanparvarlik hissi yanada o‘z cho‘qqisiga chiqadi.

Mamlakatimiz Prezidenti SH.M. Mirziyoyev Abdula Avloniyning quyidagi fikrlarni takidlab o‘tgan edi. “Biz uchun hech qachon kun tartibidan tushmaydigan yana bir o‘ta muhim masala borki, unga alohida to‘xtalib o‘tishni zarur deb bilaman. U ham bo‘lsa, unib-o‘sib kelayotgan yosh avlodimiz, farzandlarimiz tarbiyasi bilan bog‘liqdir. Buyuk bobomiz Abdulla Avloniy aytganidek, bu masala biz uchun haqiqatan ham yo‘naloq, yo‘ halokat, yo‘ saodat, yo‘ falokat masalasidir va o‘z dolzarbligi va ahamiyatini hech qachon yo‘qotmaydigan, ta‘bir joiz bo‘lsa, masalalarning masalasidir”. Abdulla Avloniyning maktab uchun yaratgan asarlari, nafaqat badiiy, balki noyob tarixiy- pedagogik, ta‘limiy va qomusiy yodgorlik hisoblanadi. So‘nggi yillarda buyuk donishmandlik majmuasi bo‘lmish bu asarlarni o‘rganishga qiziqish ayniqsa kuchaydi. Sharq mutafakkirlari asarlari bilan yaqindan tanishar ekanmiz, yana bir karra shunga iqror bo‘lamizki, ular asarlarida mangu kitoblarida ifoda etilgan buyuk g‘oyalar, falsafiy pedagogik hikmatlar o‘zining hayotiy mazmuni bilan bizni bugun ham hayratda qoldiradi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI

AXLOQ - Insonlarni yaxshilikga chaqiruvchi, yomonlikdan qaytarguvchi bir ilmdur. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar ila bayon qiladurgan kitobni axloq deyilur. Axloq ilmini o‘qub, bilub amal qilgan kishilar o‘zining kim ekanin, janobi Haq na uchun xalq qilganin, yer yuzida nima ish qilmak uchun yurganin bilur. Bir kishi o‘zidan xabardor bo‘lmasa, ilmni, ulamoni, yaxshi kishilarni, yaxshi narsalarni, yaxshi ishlarning qadrini, qimmatini bilmas. O‘z aybini bilub, iqror qilub tuzatmag‘a sa‘y va ko‘shish qilgan kishi chin bahodir va pahlavon kishidur. Rasuli akram nabiiyi muhtaram afandimiz: «Mezon tarozusiga qo‘yiladurgan amallarning ichida yaxshi xulqdan og‘irroqi yo‘qdur.

Mo‘min banda yaxshi xulqi sababli kechasi uxlamasdan, kunduzlari ro‘za tutub ibodat qilgan kishilar darajasiga yetar», – demishlar.

So‘ylasang so‘yla yaxshi so‘zlardan,  
Yo‘qsa jim turmoqing erur yaxshi.  
O‘ylasang yaxshi fikrlar o‘yla,  
Yo‘qsa gung bo‘lmoqing erur yaxshi.  
Ishlasang ishla yaxshi ishlarni,  
Yo‘qsa bekorlig‘ing erur yaxshi. O‘rganmoq lozim.

Tarbiya zurriyot dunyoga kelgandan boshlanib, uning oxiriga qadar davom etadi. U bir qancha bosqichdan – uy, bog'cha, maktab va jamoatchilik tarbiyasida iborat.

«Turkiy guliston yoxud axloq» asaria'rifatparvarlikni targ'ib qiladi va unda shunday fikrlar keltiriladi: «Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofati dir. Ilm inson uchun oliy, muqaddas fazilat dir. Zeroki, ilm bizga o'z ahvolimizni, harakatimizni o'yinda kabi ko'rsatur».

### XULOSA

Shunday qilib , Abdulla Avloniy xalqimizga o'zining hech o'lmas asarlarini qoldirgan buyuk inson, o'z xalqini savodli qilish maqsadida yangi usuldagi maktablar ochib uni darsliklar va o'quv mashg'ulot qo'llanmalari bilan ta' minlash uchun jonbozlik ko'rsatgan yetuk adabiyot vakilidir. Uning merosini abadiylashtirish esa biz yoshlarning qo'limizdadir

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev. Sh.M. Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida. // Prezident Farmoni. "Xalq so'zi" gazetasi, 2017-yil 13-yanvar. – №9. – B. 1.
2. <https://arboblar.uz/uz/people/avlioni-abdulla>.
3. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent:Yangi nashriyot uyi. 2019.